

**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFATPARVAR DAVLAT BARPO  
ETISHNING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA MA'NAVYIY-AXLOQIY  
ASOSLARINI OPTIMALLASHTIRISH: MUAMMO, YECHIM VA  
VAZIFALAR**

*Ismatov Shohrubbek Murod o'g'li*

*BuxDPI ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi*

*Shaxrizoda Baxtiyorova Ulug'bek qizi*

*BuxDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi*

*IMIG'22 guruh talabasi*

**Annotatsiya.** *Yangi O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati yanada rivojlantirish va demokratik huquqiy davlat darajasini yangi bosqichga o'tkazish yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson qadrini ulug'lash, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ularni ijtimoiy himoya qilishdir. Insonni ulug'lashni amalda ifoda etish hamda har tomonlama kamol toptirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda bosh omil qilib olinayotgani buning yorqin misolidir. Shu munosabat bilan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va boshqa qadr-qimmatini ulug'lashda davlat va jamiyat institutlarining o'rni va rolini ochib berish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar hamda Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy munosabatlarasoslarning muammo va yechimlarini ochib berish va ularni bartaraf etish vazifalari maqsad qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Taraqqiyot strategiyasi, Uchinchi renessans, Inson qadri, Fuqarolik jamiyati, Ma'rifatparvar davlat, Harakatlar strategiyasi, Inson kapitali,*

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir”. – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurası ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”, – dedi Mirziyoyev. 2017-yildan boshlab mamlakatimizda tub islohitlar davri boshlandi. **O'zbekistonda “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini yangi “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o'zgartirib, konstitutsiyaviy qonunchilik va amaliyotda mustahkamlash, eng avvalo, inson manfaatini har narsadan ustun qo'yish maqsad qilindi.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag‘ishlangan nutqida “Hozirgi kunda O‘zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat”, degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati yetdi” deb ta’kidlagandi. Qayd etish lozimki, ijtimoiy davlat – sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, muhtojlarni uy-joy bilan ta’minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan davlat modelidir. Ahamiyatlisi, mamlakatimizda oxirgi besh-olti yilda ijtimoiy davlatning asosiy talablari amalda qo‘llanildi. **Birinchi**dan, 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifalar etib belgilandi. **Ikkinchi**dan, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil etildi, “Monomarkaz”lar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tashkil etildi, ishlayotgan pensionerga yuz foiz pensiya to‘lashga o‘tildi. 2022 yil – “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deya nomlandi, Aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi tasdiqlandi va mamlakatda kambag‘allik muammosi tan olindi. Har bir aholi punktlarida (mahallalarda) kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadini oshirish uchun mas’ul bo‘lgan hokim yordamchilari lavozimi joriy etildi. Eng muhimi, aholiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yildi. **Uchinchi**dan, ijtimoiy davlatga mos bo‘lgan ta’lim va tibbiyot sohasiga alohida e’tibor qaratildi. **“Ta’lim uchun investitsiya – buyuk kelajakka sarmoya” shiori ostida** uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha misli ko‘rilmagan islohotlar amalga oshirildi. Buning natijasida maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma’lumotli o‘qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga yetkazildi. 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta tiklandi, maktab o‘qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshirildi. Sog‘liqni saqlash sohasida byudjetdan ajratilgan mablag‘lar 7,3 trillion so‘mdan 24,7 trillion so‘mga, shifokorlarning o‘rtacha oylik maoshi 1131,2 ming so‘mdan 3282,7 ming so‘mga, hamshiralar maoshi 692,1 ming so‘mdan 2008,6 ming so‘mga, dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun byudjetdan ajratilgan mablag‘lar 0,4 trillion so‘mdan 1,8 trillion so‘mga, tibbiyot sohasidagi OTMlar soni 7 tadan 9 taga, xususiy tibbiyot tashkilotlari soni 4 000 tadan 7 049 taga yetkazildi. Shuningdek, so‘nggi yillarda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning qabu qilinishi ma‘rifatparvar davlat barpo etishda muhim ahamyat kasb etdi. Mazkur taraqqiyot strategiyasida 2026-yilgacha ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab

olinadi. 2022-yil 1-apreldan Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatida 1–4-sinf o‘quvchilari bepul ovqat (nonushta yoki tushlik) bilan ta‘minlanadi. 2023-yil 1-yanvardan pensiyani hisob-kitob qilishda ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 10 barobaridan 12 barobarigacha oshiriladi.

“Nigoh”ning xabar qilinishicha farmon loyihasi bo‘yicha 16,7 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. Ularni har tomonlama ko‘rib chiqish yakuniga ko‘ra, hujjatga qariyb 100 ta konseptual hamda 200 dan ortiq aniqlashtiruvchi tahririy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Farmonda O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida 100 ta maqsadlarga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan 398 ta chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga 2022-yilda umumiy qiymati 55 trillion so‘m va 11,7 milliard dollar miqdoridagi mablag‘lar ajratilishi belgilangan. O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta‘minlash ko‘p jihatdan konstitutsiyaviy asoslarni mustahkamlash, davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak so‘ngi yillarda Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish masalasi eng ustuvor yo‘nalishga aylandi. Buni qabul qilinayotgan qonunlar, sud mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha islohotlar samaralarida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish konstitutsiyaviy islohotlarning ajralmas qismi bo‘lib, bir qator davlatlar Konstitutsiyalari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy shartnomalar normalari talablarini o‘ziga singdirganligini ko‘rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma‘ruzalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘llimizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-kitob. Toshkent.: O‘zbekiston, 2018

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T.:O‘zbekiston, 2017.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birga quramiz”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma yig‘ilishidagi nutq. –T.:O‘zbekiston, 2016.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-so

## **II. Asosiy adabiyotlar**

O.O.Obidov, A.A.Jo'ryeva BIOLOGIK KIMYO Laboratoriya amaliyoti

R.P.Ibragimov, M.M. Abdullaeva Biokimyoda laboratoriya mashg'ulotlari  
Toshkent-Universitet 2015

Oliy ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. Toshkent davlat texnika universiteti.  
Toshkent 2017-yil

A.A.Xodjimetrov biologik kimyo O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi R.A. Sobirova O.A.Abrorov F.X.Inoyatova A.N.Aripov <> <> 2018-yil

### **Internet manbalari**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.Pedagog.uz](http://www.Pedagog.uz)

[www.maik.ru](http://www.maik.ru)

[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

[www.aim.uz](http://www.aim.uz)